

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI  
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH  
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA DEFЕКТОЛОГИЯ  
FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA  
ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN  
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA DEFEKTOLOGIYA FANI BO'YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINОВI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya Defektologiya fani bo'yicha nomzodlarni ishga qabul qilish sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

## **I. Umumiy tamoyillar**

Baholashning asosiy maqsadi Defektologiya fani mutaxassislarining fan bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalar faoliyatini tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo'llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo'naltiriladi.

## **II. Me'yoriy asoslar**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i.

## **III. Baholash qamrovi**

Defektologiya fani bo'yicha 40 ta test topshirig'i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

**Mutaxassislik fani bo'yicha tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi  
va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti**

*1-jadval*

| <b>Mazmun soha</b>                                 | <b>Baholanadigan konstruktlar</b> | <b>Testlar soni</b> |
|----------------------------------------------------|-----------------------------------|---------------------|
| <b>1. Defektologiya fanining umumiy masalalari</b> |                                   |                     |

|                                                                                                                                                                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>1.1.<br/>Defektologiyaning<br/>nazariy asoslari</b>                                                                                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li>-Defektologiyaning asosini, uning predmeti, vazifalari, prinsiplari, asosiy kategoriyalari, bo‘limlari va metodlarini bilish;</li> <li>-fanlararo aloqadorligini tushunish;</li> <li>-rivojlanish nuqsonlarini tasniflash va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;</li> <li>-Inkluziv ta’lim tushunchasini bilish.</li> </ul>                                                                                                                                          | 3 |
| <b>1.2. Rivojlanish<br/>normasi.<br/>Rivojlanish<br/>anomaliyalari</b>                                                                                                     | <ul style="list-style-type: none"> <li>-Rivojlanish normalarini va ularning turlarini, “anomaliya” tushunchasini, rivojlanishdagi og‘ishlarning xususiyatlari va sabablarini bilish;</li> <li>-og‘ishlarni aniqlay olish, ularning kelib chiqish tabiati va bola rivojlanishiga ta’sirini tushunish;</li> <li>-korreksion usullarni qo‘llay olish hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.</li> </ul>                                       | 3 |
| <b>2. Intellektual rivojlanishida buzilishlari, ruhiy rivojlanishi sustlashgan va autizm spektr buzilishlari bo‘lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |   |
| <b>2.1. Aqliy<br/>nuqsonlari<br/>bo‘lgan bolalar</b>                                                                                                                       | <ul style="list-style-type: none"> <li>-Intellektual rivojlanishdagi buzilishlarning (oligofreniya, demensiya va boshqa shakllar) klinik-pedagogik xususiyatlarini bilish;</li> <li>-ularning bilish jarayonlari o‘ziga xosligini hisobga olish;</li> <li>-har bir yosh davrida ta’lim va tarbiyaning vazifalarini tushunish va <b>korreksion-pedagogik ishlarni tashkil eta olish;</b></li> <li>-samarali metodikalarni qo‘llay olish va moslashtirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalana olish.</li> </ul> | 5 |
| <b>2.2. Ruhiy<br/>rivojlanishi<br/>kechikkan bolalar</b>                                                                                                                   | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatiga ko‘ra turlarini bilish;</li> <li>- ularning korreksion ta’lim va tarbiyasini tashkil eta olish;</li> <li>- turli yosh davrlarida o‘qitish va ta’lim vazifalarini tushunish;</li> <li>-samarali pedagogik metodlarni qo‘llay olish va rivojlantirish hamda ijtimoiylashtirish uchun maxsus vositalardan foydalana olish.</li> </ul>                                                                              | 3 |

|                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |   |
|--------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>2.3. Bolalarda autizm spektrining buzilishlari</b>  | <ul style="list-style-type: none"> <li>-Bolalikdagi erta autizm sindromiga ega bolalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish;</li> <li>-ularning bilish, shaxsiy va emotsional-irodaviy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;</li> <li>-autizmga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan korreksion metodikalarni bilish va amaliyotda qo‘llay olish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | 3 |
| <b>1. Logopediya</b>                                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |   |
| <b>3.1. Logopediya fanining umumiy masalalari</b>      | <ul style="list-style-type: none"> <li>-Logopediya fanining predmeti, vazifalari va prinsiplari, nutq buzilishlarining sabablari bilish;</li> <li>- nutq buzilishlarining tasnifini bilish (alaliya, rinolaliya, duduqlanish, dizartriya, afaziya nutq nuqsonlari va uning shakllari);</li> <li>-ularning klinik, psixologik va pedagogik xususiyatlarini aniqlay olish;</li> <li>- tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llarini bilish;</li> <li>- nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda diqqat, xotira va fikrlashni rivojlantirish usullarini bilish;</li> <li>- turli yoshdagi bolalarda o‘qitish va tarbiyalash maqsadlarini tushunish;</li> <li>- ushbu nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda samarali usullar va moslashtirilgan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash.</li> </ul> | 5 |
| <b>2. Tiflopedagogika</b>                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |   |
| <b>4.1. Tiflopedagogika fanining umumiy masalalari</b> | <ul style="list-style-type: none"> <li>-Tiflopedagogika fanining maqsad va vazifalari;</li> <li>-ko‘rish buzilishlarining turlari, sabablari va oqibatlarini bilish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | 2 |
| <b>4.2. Ko‘rish nuqsoniga ega bolalar</b>              | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Ko‘rish nuqsoniga ega bolalarning bilish jarayonlarining o‘ziga xosligi;</li> <li>- ko‘rish nuqsoniga ega bolalar nutqi va muloqotning rivojlanishi.</li> <li>-bu toifadagi bolalarda shaxs shakllanishi xususiyatlarini hisobga olish;</li> <li>-korreksion ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosligini tushunish;</li> <li>-moslashtirilgan metodikalardan foydalanish hamda maxsus texnik va pedagogik vositalarni qo‘llay olish.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 5 |

| <b>5. Surdopedagogika</b>                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |              |
|------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>5.1. Surdopedagogika fanining umumiy masalalari</b>     | - Surdopedagogikaning predmeti va vazifalarini bilish;<br>-eshitish nuqsonlarining sabablari va tasnifi, eshituv analizatori faoliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning asosiy toifalarini bilish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | 2            |
| <b>5.2. Eshitish nuqsoniga ega bolalar</b>                 | -ularning bilish va shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;<br>-eshitish nuqsoniga ega bolalar nutqini shakllantirish;<br>-samarali metodikalardan foydalanish hamda eshitishni reabilitatsiya qilishga qaratilgan texnik va pedagogik vositalarni qo'llay olish.<br>-koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlarning o'ziga xosligini tushunish.                                                                                                     | 5            |
| <b>6. Harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bor bolalar</b>   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |              |
| <b>8.1. Harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bor bolalar</b> | -Bolalarda uchraydigan bolalar serebral falaji (BSF) va boshqa harakat buzilishlarining umumiy tavsifi, harakat nuqsoni tuzilmasi hamda harakat buzilishlarining tasnifini bilish;<br>-bu toifadagi bolalarga yordam ko'rsatish, ularning ta'lim-tarbiyasini tashkil etish;<br>-shaxsiy, emotsional-irodaviy va bilish sohalarining xususiyatlarini tushunish;<br>-moslashtirilgan metodikalardan foydalanish hamda korreksiya va reabilitatsiyaga qaratilgan maxsus vositalarni qo'llay olish. | 4            |
| <b>Jami:</b>                                               |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>40 ta</b> |

### Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

2-jadval

| <b>T/r</b> | <b>Kognitiv daraja</b> | <b>Izohi</b>                                                                                                                            |
|------------|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>1</b>   | <b>Bilish</b>          | Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish |
| <b>2</b>   | <b>Qo'llash</b>        | Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish                                                        |
| <b>3</b>   | <b>Mulohaza qilish</b> | Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish                                          |

#### **IV. Baholash mezonlari**

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javob uchun 2,5 ball, noto'g'ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

#### **V. Imtihon tartibi**

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, u belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

#### **VII. Tavsiya etiladigan asosiy manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 46-son Qarori

2. M.Y.Ayupova "Logopediya", "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent. 2007-y.

3. V.S. Raxmanova "Defektologiya asoslari" (Korreksion pedagogika) Toshkent "Niso Poligraf" 2017-y.

4. D.R.Madazizova "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent 2018-y.

5. M.R.Po'latxo'jayeva "Defektologiya klinik asoslari" Toshkent 2013-y.

6. L.R.Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova va boshqalar "Maxsus psixologiya" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent 2013 y.

7. N.Z.Abidova "Maxsus psixologiya" (Tiflopsixologiya). Toshkent 2017 y.

8. Qodirova F. Xusnuddinova Z. "Tiflopedagogika" Toshkent "Renesans sari" 2024 y.

9. "Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatish metodikasi" Toshkent 2014 y.

10. L.R.Mo'minova "Autizm sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari" Toshkent "Spectrum Media Group" 2015 y.

11. D.Nazarova, Z.Mamarajabova “Surdopedagogika” Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2024 y.
12. Z.N.Mamarajabova, M.M.Abdullayeva “Daktilologiya va imo-ishora nutqi” (surdopedagogika ta’lim yo‘nalishi) Toshkent 2024 y.
13. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi” Toshkent-2016 y.
14. P.M.Po‘latova, D.B.Yakubjanova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova va b. “Maxsus pedagogika” – “Fan va texnologiyalar”-Toshkent-2014 y.

### **Rus tilida berilgan adabiyotlar**

1. Абаева Г.А. Система условных обозначений в учебниках, изданных рельефно-точечным шрифтом (шрифтом брайля): метод. рекомендации / - Алматы: 2019.- 50 с
2. Волкова, Л. С. Логопедия : учебник для вузов / Л. С. Волкова. — Москва : ВЛАДОС, 1996.
3. Глухов, В. П. Дефектология. Специальная педагогика и специальная психология : курс лекций / В. П. Глухов. — Москва : МПГУ, 2017.
4. Геранкина А. Г. Практикум по дактильной речи. Пособие для преподавателей дефектолог. фак-тов пед. ин-тов. М., «Просвещение», 1992.
5. Еремеева, И. О. Коррекционно-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста с задержкой психического развития / И. О. Еремеева. — [Б. м.] : Дайджест, 2021.
6. Ермаков, В. П. Основы тифлопедагогики: развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения : учебное пособие для студентов высших учебных заведений / В. П. Ермаков, Г. А. Якунин. — Москва : Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2000.
7. Зайцева, Г. Л. Жестовая речь. Дактилология : учебник для студентов высших учебных заведений / Г. Л. Зайцева. — Москва : ВЛАДОС, 2000.
8. Левченко, И. Ю. Особенности обучения ребенка с нарушениями опорно-двигательного аппарата в общеобразовательном учреждении / И. Ю. Левченко. — Москва : Нестор-История, 2012.
9. Мозговой, В. М. Олигофренопедагогика. Основы олигофренопедагогики: учебное пособие для студентов средних учебных заведений / В. М. Мозговой, И. М. Яковлева, А. А. Еремина. — Москва : Издательский центр «Академия», 2006.
10. Назарова Н. М. Специальная педагогика Под редакцией для студентов педагогических вузов Москва АСАДЕМА 2000.

11. Плаксина, Л. И. Психолого-педагогическая характеристика детей с нарушением зрения : учебное пособие / Л. И. Плаксина. — Москва : РАО ИКП, 1999.
12. Речицкая, Е. Г. Сурдопедагогика / Е. Г. Речицкая. — Москва : ВЛАДОС, 2004.
13. Рудник, О. С. Коррекционная работа с аутичным ребенком / О. С. Рудник. — Москва : ВЛАДОС, 2021.
14. Смирнова, И. А. Логопедия : иллюстрированный справочник / И. А. Смирнова. — Санкт-Петербург : КАРО, 2022.
15. Соловьева, Т. А. Воспитание и обучение детей с нарушениями слуха (XX век) / Т. А. Соловьева. — Москва : ФГБНУ «Институт коррекционной педагогики», 2025.
16. Шевченко, С. Г. Диагностика и коррекция задержки психического развития у детей : пособие для учителей и специалистов коррекционно-развивающего обучения / С. Г. Шевченко. — Москва : АРКТИ, 2001.

#### **VIII. Eslatma**

*Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan qonunchilik, kasbiy mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Biroq topshiriqlar manbalardan to'g'ridan-to'g'ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, bilimni amaliyotda qo'llash va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholashga qaratiladi.*